

ELLIKAQAL'A TUMANI BO'STON SHAHRI URBONIMLARINING MILLIY-  
MADANIY XUSUSIYATLARI  
(ABAY MFY KO'CHALARI MISOLIDA)

**Shermamatova Navbahor Orifjon qizi,**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*E-mail: [navbahorshermamatova7@gmail.com](mailto:navbahorshermamatova7@gmail.com)*

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18451263>**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanining ma'muriy markazi-Bo'ston shahri, xususan Abay mahallasi hududidagi urbonimlarning lingvomadaniy tahlili amalga oshirilgan. Urbonimlar nomi orqali tarixiy shaxslar, adabiyot namoyondalari bundan tashqari san'atkorlarning o'rni, milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'z:** *urbonim, onomastika, toponim, etnografiya, ma'naviyat, hududiy onomastika, jamiyat, til, antroponim.*

**Аннотация:** *В данной статье представлен лингвистический и культурный анализ городских названий города Бостан, административного центра Элликкальского района Республики Каракалпакстан, в частности, района Абай. Рассматривается роль исторических личностей, литераторов и художников в понимании национальной идентичности через призму городских названий.*

**Ключевые слова:** *городское название, ономастика, топоним, этнография, духовность, территориальная ономастика, общество, язык, антропоним.*

**Annotation:** *This article presents a linguistic and cultural analysis of urban names in the city of Bostan, the administrative center of the Ellikkal'a district of the Republic of Karakalpakstan, in particular in the Abay neighborhood. The role of historical figures, literary figures, and artists in the understanding of national identity is discussed through the names of urban names.*

**Key words:** *urban name, onomastics, toponym, ethnography, spirituality, territorial onomastics, society, language, anthroponym.*

**Kirish.** Til jamiyatning madaniy va ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Undagi har bir nom, atama va til birliklari muayyan ijtimoiy muhit, tarixiy davr hamda xalqning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan sanaladi. Nomlash jarayoni bevosita inson tafakkuri, urf-odatlari, e'tiqodlari va hayot tarzini aks ettirganligi bois, u faqat lingvistik hodisa bo'lib qolmay, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ega fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, onomastika, xususan, urbanonimlar sohasi jamiyat rivoji, milliy o'zlikni anglash jarayoni hamda tarixiy-madaniy xotirani saqlashda muhim o'rin tutadi. Shahar hududidagi ko'cha, maydon, mahalla, guzar va boshqa obyektlar nomlari o'zida xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy munosabatlari hamda ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtiradi. Urbanonimlar orqali muayyan davrga xos siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni kuzatish, shuningdek, jamiyat tafakkuridagi o'zgarishlarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu bois urbanonimlarni ilmiy asosda

o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik va ijtimoiy fanlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** "Urbonimlar lotincha urbanus — "shaharga oid" va yunoncha onoma — "nom" — bu shahar va shaharchalardagi ichki obyektlarning (ko'cha, maydon, xiyobon, mahalla, daha, berk ko'cha va h.k.) nomlari majmuidir. Urbonimlar onomastikaning bir qismi bo'lib, ular nafaqat manzilni belgilash, balki shaharning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy qiyofasini aks ettirish vazifasini ham bajaradi. Urbonimlarning tarkibida ko'cha nomlari (godonimlar) va maydon nomlari (agoronimlar) eng asosiy o'rinni egallaydi." [1]

So'nggi yillarda kichik hududlarga oid toponimlarni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu yo'nalishdagi tadqiqotlardan biri M.M. Matnazarov tomonidan tayyorlangan "Urganch shahri urbanonimlarining antroposentrik tadqiqi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasidir. Mazkur ilmiy ishda qadimiy tarixga ega bo'lgan Xorazm viloyatining markazi — Urganch shahridagi urbanonimlar har tomonlama tahlil qilingan. Dissertatsiyada shahar hududidagi mahalla, ko'cha, guzar, mavze, maydon, daha, bog', xiyobon, bozor, yo'llar hamda suv obyektlari nomlarini o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslari belgilab berilgan [2].

Qoraqalpog'iston nekronimlarini o'rgangan S.Yusupov o'zining doktorlik dissertatsiyasida nekronimlar nomlanishining milliy-madaniy xususiyatlari yuzasidan quyidagi fikrlarni keltirgan: Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasida ikki milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ular yuzga yaqin millat va elatlarning vakillaridir. Eng ko'p aholi soni o'zbek va qoraqalpoq millati vakillarining ulushiga to'g'ri keladi. Hududdagi xalqlar bir necha asrlardan buyon birgalikda hayot kechirganligi bois, ularning madaniyati, dunyoqarashi, olamni idrok qilishi ham bir-biriga yaqin. O'tmishda ajdodlarimiz diniy bilimga ega bo'lgan insonlarni juda hurmat qilishgan. Islom dini talablarini, uning arkonlarini biladigan, mamlakatga islomni yoyish uchun kelgan ulamolarni *bobo, ota* so'zlari bilan e'zozlaganlar. [3]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Biz ushbu maqolamizda Ellikaqal'a tumani Bo'ston shahri urbonimlarining milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishni maqsad qildik.

Mustaqillikdan oldingi yillarda shahar va aholi punktlaridagi ko'plab ko'cha hamda joy nomlari rus tili va sovet davri ta'sirida shakllangan edi. Bu nomlar ko'pincha hududda yashovchi mahalliy aholi va boshqa millatlarning tarixiy-madaniy xususiyatlarini to'liq aks ettirmasdi.

Mustaqillikdan so'ng esa joy nomlariga alohida e'tibor qaratildi. Ruscha va sovetcha nomlar bosqichma-bosqich olib tashlanib, ularning o'rniga nafaqat o'zbek xalqining, balki O'zbekistonda yashab kelayotgan boshqa qardosh xalqlarning ham tarixiga, madaniyatiga va ma'naviy merosiga mos nomlar berila boshlandi. Xususan, qozoq millatiga mansub mashhur adib va mutafakkirlar nomlarining ko'chalarga berilishi xalqlar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hurmat va totuvlikni ifodalaydi.

Bugungi kunda ko'chalarga o'zbek, qozoq va boshqa millat vakillariga mansub mashhur shaxslar, adiblar, olimlar va san'atkorlar nomlarining berilishi mustaqillikdan keyingi davrda milliy ong bilan birga millatlararo totuvlik va bag'rikenglik kuchayganini ko'rsatadi.

Urbonimlar nafaqat manzilni belgilash vazifasini bajaradi, balki shaharning tarixiy rivoji, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik sanaladi.

Bo'ston shahri onomastik tizimi o'ziga xos tarixiy, milliy qatlamlarga ega bo'lib, ularni o'rganish hududiy madaniyat hamda milliy o'zlikni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'chalar nomini o'rganar ekanmiz ularning asosiy qismiga atoqli shaxslarning nomlari berilganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni antroponimik urbonimlar ko'p qismini tashkil etadi.

Abay mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)dagi ko'cha nomlarining milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganib chiqamiz.

**Tahlil va natijalar.** Ushbu mahalla nomi qardosh xalqlar hamjihatligi, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikning yorqin misolidir. Abay mahallasining ko'chalari ham madaniy yuksaliganligi hamda rang-barangligi bilan ajralib turadi. Mahalla hududida jami 7 ta ko'cha mavjud bo'lib ular Kamoliddin Behzod, Abay, Otajon Xudoysukurov, Firdavsiy, Nodirabegim, Fazogir, Farobiy nomli ko'chalardir. Nomlar xilma-xilligidan shu narsa aniq bo'ladiki, shaharda adabiyot, san'at, madaniyatga bo'lgan hurmat cheksizdir. Mazkur urbonimlarni mazmun mohiyatiga ko'ra uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. San'at fidoiylari nomi bilan bog'liq urbonimlar
2. Adabiyot namoyondalari nomi bilan bog'liq urbonimlar
3. Ilm-fan va zamonaviy taraqqiyot nomi bilan bog'liq urbonimlar

San'at fidoiylari nomi bilan bog'liq urbonimlar. Ushbu guruhga Otajon Xudoysukurov ko'chasini keltirish mumkin. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti bo'lgan hamda Ellikqal'a hududida tug'ilgan Otajon Xudoysukurov nomining berilishi-shahar ahololisining o'z san'at namoyondalariga bo'lgan yuksak ehtiromi, milliy qo'shiqchilikka bo'lgan hurmatini ko'rsatadi. Mazkur urbonim Bo'ston shahri onomastikasining yorqin xususiyatlaridan biri desak boladi. Keyingi ko'cha bu Kamoliddin Behzod nomli ko'cha bo'lib, hududga bu nomning qo'yilishi estetik madaniyatni targ'ib qiladi.

Adabiyot namoyondalari nomi bilan bog'liq urbonimlar. Nodirabegim, Firdavsiy, Abay kabi nomlarning qo'yilgani aholining turkiy hamda fors-tojik adabiyotiga bo'lgan yuksak hurmati, ehtiromini ko'rsatadi. Qozoq adabiyotining vakili hisoblangan Abay Qonanboyevning nomi ham mahalla ham ko'chaga qo'yilganligi qardosh xalqlar o'tasidagi do'stlik rishlarining naqadar mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Nodirabegim o'zbek ayol ijodkorlariga bo'lgan hurmat va nomini abaiylashtirish ramzi sifatida e'tirof

etsak bo‘ladi. Fors-tojik adabiyotining yirik namoyondasi “Shohnoma” asarining muallifi Firdavsiy nomining ko‘chaga qo‘yilishi nafaqat o‘zbek, balki fors-tojik adabiyotiga bo‘lgan qiziqish hamda hurmat ramzi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilm-fan hamda falsafa vakili hisoblangan Abu Nasr Farobiy nomining ko‘chalardan biriga berilishi jamiyatda ilm-fanga bo‘lgan intilish, Sharq Uyg‘onish davri qahramonlariga bo‘lgan ehtirom hamda falsafiy fikrlariga nisbatan hurmat belgisi desak bo‘ladi.

Ilm-fan va zamonaviy taraqqiyot nomi bilan bog‘liq urbonimlar. Mahalla arxitekturasiga zamonaviylik ruhini bag‘ishlaydigan zamonaviy ko‘cha nomi hisoblangan Fazogir ko‘chasi Bo‘ston onomastikasida nafaqat klassik adabiyot nomlari, balki zamonaviy nomlar ham alohida ajralib turishini ko‘rsatadi. Abay MFY hududidagi urbonimlarning aksariyatini atroponimik nomlar tashkil etishi tasodifiy holat emas. Antroponimik urbonimlar tarixiy shaxs xotirasini abadiylashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda yosh avlod ongida ma‘naviy idealarni shakllantirish kabi muhim vaziflarni bajaradi. Mazkur holat Bo‘ston shahri aholisi uchun ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalish ustuvor ekanini ko‘rsatadi. Chunki nomlash jarayonida harbiy-siyosiy yoki geografik belgilar emas, balki san‘at va adabiyot namoyondalari tanlangan.

Nodirabegim nomining urbonim sifatida qo‘llanilishi alohida e‘tiborga loyiq. Chunki urbonomiya tizimida ayol ijodkorlar nomi bilan atalgan obyektlar nisbatan kam uchraydi. Ushbu holar ayol ijodkorlarning tarixiy ro‘lini e‘tirof etish, gender tenglikka bo‘lgan ijtimoiy qarashlarning rivojlanishi, milliy adabiyotdagi ayol obrazining qadrlanishi kabi jihatlarni namoyon etadi.

Abay, Firdavsiy, Nodirabegim, Farobiy kabi nomlarning bir hududda jamlanishi ko‘p qatlamli madaniy xotira mavjudligidan dalolat beradi. Bu holat turkiy, fors-tojik, umumbashariy madaniy qatlamlarning uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, urbanonimlar shunchaki joy nomlari emas, balki jamiyatning tarixi, madaniyati va ma‘naviy qarashlarini aks ettiradi. Ellikqal‘a tumani Bo‘ston shahri, xususan Abay MFY hududidagi ko‘cha nomlari milliy va madaniy asosda tanlanganini ko‘rish mumkin.

Mahalladagi ko‘chalarning aksariyati san‘at, adabiyot va ilm-fan namoyondalari nomlari bilan atalgan. Bu holat aholining ma‘naviy qadriyatlarga e‘tibor berishini va tarixiy shaxslar xotirasini qadrlashini ko‘rsatadi. Nodirabegim nomining berilishi ayol ijodkorlarga bo‘lgan hurmatni, Fazogir kabi nomlar esa zamonaviy qarashlarning ham inobatga olinayotganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Abay MFY urbanonimlari hududning tarixiy xotirasi va madaniy yo‘nalishini aks ettiradi hamda ularni o‘rganish milliy o‘zlik va ma‘naviy qadriyatlarni anglashda muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Begmatov E. O'zbek onomastikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2013-yil.
2. Matnazarov M.M. Urganch shahri urbanonimlarining antroposentrik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Urganch, 2024. – 53 b.
3. Yusupov.S.SH. Qoraqalpog'iston nekronimlarining semantik, grammatik va milliy-madaniy xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Urganch, 2025 – 15 b.

